

HUQUQIY ETIKA VA PROFESSIONAL JAVOBGARLIK

Yunusaliyev Faxriddin Alisher o'g'li

Farg'ona Yuridik texnikumi

Sud-huquqiy faoliyati 43-24 guruh o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18710933>

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida huquq sohasi vakillarining kasbiy madaniyati, axloqiy qiyofasi hamda professional javobgarligining nazariy-huquqiy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida huquq sohasi xodimlarining axloqiy pokligi, mas'uliyati va jamoat ishonchini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, professional javobgarlik hamda huquqiy etika qoidalariga rioya qilishning ahamiyati milliy va xorijiy tajriba asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy etika, professional javobgarlik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, kasbiy o'dob-axloq, sud-huquq islohotlari, yurist kasbiy faoliyati, intizomiy javobgarlik, jamoat ishonchi, adolat, huquqni qo'llash amaliyoti.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретико-правовые и практические аспекты профессиональной культуры, нравственного облика и профессиональной ответственности представителей юридической сферы в условиях построения правового государства и гражданского общества. В рамках проводимых в Республике Узбекистан судебно-правовых реформ особое внимание уделяется вопросам обеспечения нравственной чистоты, ответственности работников юридической системы и укрепления общественного доверия. Кроме того, на основе национального и зарубежного опыта рассмотрено значение соблюдения правил профессиональной ответственности и норм юридической этики.

Ключевые слова: юридическая этика, профессиональная ответственность, правовое государство, гражданское общество, правовая культура, профессиональная этика и служебная дисциплина, судебно-правовые реформы, профессиональная деятельность юриста, дисциплинарная ответственность, общественное доверие, справедливость, правоприменительная практика.

Abstract. This article analyzes the theoretical, legal, and practical aspects of the professional culture, moral character, and professional responsibility of legal professionals in the context of building a rule-of-law state and civil society. Within the framework of the judicial and legal reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan, special attention is given to ensuring the moral integrity, responsibility of legal system employees, and strengthening public trust. In addition, the importance of professional responsibility and compliance with the rules of legal ethics is examined based on national and international experience.

Key concepts: legal ethics, professional responsibility, rule of law, civil society, legal culture, professional conduct and ethics, judicial and legal reforms, professional activity of lawyers, disciplinary liability, public trust, justice, law enforcement practice.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida huquq sohasida faoliyat yurituvchi shaxslarning kasbiy madaniyati, axloqiy qiyofasi va javobgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Sudya, prokuror, advokat, notarius, yurist-maslahatchi kabi kasb egalari faqat qonunni bilish bilan cheklanmasdan, yuqori darajadagi huquqiy etikaga amal qilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlari va ma'ruzalarida davlat xizmatchilari, xususan huquq sohasi vakillarining professional etikasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Prezidentning fikricha, "davlat organlarida xizmat qilayotgan har bir shaxs xalq oldida yuksak mas'uliyatni his etishi shart".

Sud-huquq islohotlari jarayonida sudyalarning mustaqilligi bilan bir qatorda, ularning axloqiy pokligi va javobgarligi masalasi ham ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Bu holat huquqiy etikaning faqat nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Shu bois huquqiy etika va professional javobgarlikni ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy huquqshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuristning kasbiy faoliyati o'ta mas'uliyatli va og'ir kasb sohaslaridan biridir. Buning sababi – ushbu soha vakillari o'ta mas'uliyatli ishni - inson taqdiri bilan bog'liq xatti-harakatlarga baho berish, davlat va jamiyat manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash bilan shug'ullanishadi.

Huquqshunoslik sohasi vakillariga yuksak ma'naviy talablar qo'yilishi ushbu sohani tanlagan vatandoshlarimizdan avvalambor, yuksak ma'naviy fazilatlarni egallashni talab etib, ularning jamiyatni yangilash va zamonaviylashtirishga qaratilgan siyosat taqdiri bilan bog'laydi.¹

Avvalo, huquqiy etika — huquq sohasida faoliyat yurituvchi shaxslarning kasbiy xulq-atvorini tartibga soluvchi axloqiy qoidalar va tamoyillar tizimidir. U qonuniylik bilan axloq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi.

S.S. Alekseev huquqiy etikani huquqiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uni "huquqni qo'llash jarayonida adolat va insonni ta'minlovchi axloqiy mezon" deb ta'riflaydi². Uning fikricha, huquq normalari qanchalik mukammal bo'lmasin, agar ular axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashmasa, kutilgan samaraga erishilmaydi.

O'zbek huquqshunosi X.T. Odilqoriyev huquqiy etikani huquqiy davlatning ma'naviy asosi sifatida ko'rib, huquq sohasidagi kasbiy faoliyat faqat qonuniy emas, balki axloqiy jihatdan ham oqlanishi lozimligini ta'kidlaydi.²

Yuristning kasb etikasiga bo'lgan ehtiyoji asosan uch omil, aniqrog'i - sabab bilan bog'liq:

Birinchidan, tanlangan dunyoviy taraqqiyot yo'limiz, - huquqiy davlatni va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir.

Bu esa, jamiyat a'zolarining axloqiy holatiga, ma'naviy madaniyati darajasiga uzviy bog'liqdir.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati faqat yuksak axloqiy fazilatlar shakllangan, qaror topgan va amal qilayotgan ijtimoiy muhitda mavjud bo'ladi.

Axloqiy tushuncha va tamoyillarning, ya'ni xususan tamoyillarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati shundaki, ular kishi ma'naviy faoliyatining ichki dunyosining turli ko'rinishlarini (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, oilaviy va h.k) idora qiladi.

¹ Ismailov B.I. Yuristning kasbiy etikasi.-T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Akademiyasi. 2019.-188 b.

² Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2018. – 301– 303-6.

Shu bois kishilar ongida yuqori darajadagi axloq normalari, qoidalari va tamoyillari kishilar ongida shakllantirilmas ekan yuqori mehnat samaradorligiga ham, kishilar faolligiga ham, huquqiy davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishiga asoslangan jamiyatga ham erishib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, - huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati axloqqa zid illatlar bor joyda qaror topa olmaydi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni jazolash vositasi emas, balki kishilarga to'g'ri yo'l ko'rsatish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. bo'lishligini talab qiladi. Shu bois yuristning kasb etikasini o'rganish zamonaviy yurist kadrlar uchun asosiy ma'rifiy talablardan biridir.

Uchinchidan, yuristning kasbiy etikasiga bo'lgan ehtiyoj sud-huquq tizimi xodimlari faoliyatida kuzatilayotgan eski tuzum illatlaridan tezroq qutulish, xodimlar faoliyatida axloq normalarining ustuvorligini ta'minlash, turli axloqiy og'ishlarning oldini olish ehtiyoji bilan bog'liq.

Professional javobgarlik — bu huquq sohasida faoliyat yurituvchi shaxsning o'z kasbiy vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi yoki etik me'yorlarni buzganligi uchun belgilangan huquqiy va axloqiy javobgarligidir.

Ilmiy adabiyotlarda professional javobgarlik quyidagi turlarga ajratiladi:

- intizomiy javobgarlik;
- ma'muriy javobgarlik;
- fuqarolik-huquqiy javobgarlik;
- jinoiy javobgarlik.

Huquqiy etika va professional javobgarlik o'zaro uzviy bog'liq tushunchalar hisoblanadi.

Etika qoidalariga rioya qilish professional javobgarlikka tortilish ehtimolini kamaytiradi, etik normalarni buzish esa huquqiy javobgarlikka olib kelishi mumkin.

Fransiya huquqshunosi J. Karbonye huquqiy etikani "qonunni insonparvarlik ruhida qo'llash san'ati" deb baholaydi.³ Uning fikricha, huquq sohasidagi kasbiy xato ko'pincha axloqiy xato bilan boshlanadi.

O'zbekiston amaliyotida ham sudya va advokatlarning kasbiy odob-axloq qoidalari mavjud bo'lib, ularni buzish intizomiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xorijiy davlatlarda huquqiy etika masalalari keng ilmiy va amaliy asosga ega. AQSHda advokatlar faoliyati "Professional Responsibility" standartlari asosida tartibga solinadi va etika qoidalarini buzish litsenziyadan mahrum etishgacha olib kelishi mumkin.

R. Rotmanning ta'kidlashicha, huquqiy etika sud tizimiga jamoat ishonchini saqlab qolishning asosiy vositasidir.⁴

Germaniyada esa sudyalarda va advokatlar uchun kasbiy odob-axloq qoidalari qonun darajasida mustahkamlangan bo'lib, ularni buzish qat'iy javobgarlikka sabab bo'ladi.⁵

³ Carbonnier J. Sociologie juridique. – Paris: PUF, 2004. – P. 132–135.

⁴ Rotman L. Lawyers and Professional Responsibility. – New York: Aspen Publishers, 2013. – P. 48–51.

⁵ Roxin C. Recht und Verantwortung. – München: C.H. Beck, 2010. – S. 77–80.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy etika va professional javobgarlik huquqiy davlatni mustahkamlash, sud-huquq tizimiga jamoat ishonchini oshirish va adolatli huquqni qo'llashni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Prezident asarlari, o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari huquq sohasida faoliyat yurituvchi shaxslardan na faqat yuqori kasbiy bilim, balki yuksak axloqiy mas'uliyat ham talab etilishini ko'rsatadi.

Фойдаланилган адабиётлар (сноскалар)

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlar. – T.: O'zbekiston, 2019. – 18–19-b.
2. Ismailov B.I. Yuristning kasbiy etikasi.-T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Akademiyasi. 2019.-188 b.
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2018. – 301–303-б.
4. Carbonnier J. Sociologie juridique. – Paris: PUF, 2004. – P. 132–135.
5. Rotman L. Lawyers and Professional Responsibility. – New York: Aspen Publishers, 2013. – P. 48–51.
6. Roxin C. Recht und Verantwortung. – München: C.H. Beck, 2010. – S. 77–80.